

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida, Toshkent shahrida jami 28 025,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	28 025,2	109,4
Bektemir	958,1	76,4
Mirzo Ulug'bek	1 817,7	101,6
Mirobod	2 601,4	101,5
Olmazor	1 634,9	118,0
Sergeli	1 190,6	118,9
Uchtepa	1 106,2	128,3
Chilonzor	1 749,0	127,9
Shayxontoxur	2 013,4	109,2
Yunusobod	3 227,2	111,8
Yakkasaroy	3 078,7	100,8
Yangi xayot	1 137,5	119,9
Yashnobod	2 077,3	115,4
Taqsimlanmagan hajim	5 433,1	111,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 21,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 18,2 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	5 746,5	1 822,5	2 037,1
<i>o'sish sur'ati, %</i>	130,2	41,3	99,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	9 827,6	1 727,9	3 073,3
<i>o'sish sur'ati, %</i>	111,4	19,6	107,8
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	3 790,3	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	120,8	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 9 606,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,9 % ga kamayib, 34,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,2 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etgan holda 14 628,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 1,3 % ni yoki 3 790,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 120,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	9 606,1	14 628,8	3 790,3	103,6	110,8	106,6
Bektemir	206,3	719,4	32,5	25,3	191,5	141,3
Mirzo Ulug'bek	242,6	1 366,8	208,4	46,3	124,3	121,2
Mirobod	1 097,8	1 415,4	88,3	125,2	95,0	99,8
Olmazor	726,9	798,6	109,3	134,2	104,7	82,6
Sergeli	212,2	688,0	290,4	187,5	97,2	112,0
Uchtepa	157,2	528,1	420,9	121,3	94,4	98,0
Chilonzor	789,8	854,5	104,7	175,8	101,3	96,4
Shayxontoxur	1 169,4	702,5	141,5	109,7	101,7	128,9
Yunusobod	1 765,0	1 279,5	182,7	104,1	117,4	118,1
Yakkasaroy	793,8	2161,9	123,0	62,8	127,7	108,3
Yangihayot	436,8	615,0	85,7	164,5	108,0	125,5
Yashnobod	665,5	1 239,9	171,8	127,8	105,0	93,6
Taqsimlanmagan hajim	1 342,6	2 259,2	1 831,2	133,0	105,8	104,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 187,5 foiz), Chilonzor tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 175,8 %), Yangihayot tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 164,5 foiz) va Olmazor (2025-yilning mos davriga nisbatan 134,2 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bektemir tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 191,5 %), Yakkasaroy tumani (127,7 %) va Mirzo Ulug'bek (124,3 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Sabirova
71 203-80-03 (3522)

Manzil:

